



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 2875,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 152,0 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2153,9 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2875,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (36,6 %), transport xizmatlari (18,6 %), moliyaviy xizmatlar (14,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2875,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,5 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2875,2	114,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	184,2	111,3
moliyaviy xizmatlar	420,2	152,0
transport xizmatlari	535,5	104,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	514,0	103,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	88,0	108,8
savdo xizmatlari	1052,0	113,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	78,3	102,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	127,5	112,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	48,7	126,0
ijara xizmatlari	70,9	118,7
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	88,8	105,1
shaxsiy xizmatlar	86,3	103,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,2	119,4
boshqa xizmatlar	70,6	105,2

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (1052,0 mlrd. so'm), transport xizmatlari (535,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (420,2 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (184,2 mlrd. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (127,5 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (24,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (152,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (126,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,4 %), Ijara xizmatlari (118,7 %), savdo xizmatlari (113,6 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,8 %), shaxsiy xizmatlar (103,0 %), transport xizmatlar (104,4 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Hozirgi kunda viloyatda ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1052,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 36,6 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**


Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,0 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,4 % ni tashkil qiladi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 88,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 108,8 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,1 % ga yetdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,9 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,1 % ga to'g'ri keladi.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (91,2 %) etakchilik qilmoqda.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy
xizmatlarning tarkibi, %**

